

---

## “Men ham harbiy bo‘laman” kitobining taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Toshloq tumanida joylashgan 2-sonli umumiy o'rta talim maktabida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan chop etilgan "Men ham harbiy bo'laman" kitobi taqdimoti bo'lib o'tdi.

Tadbirda Toshloq tuman hokimi o'rinbosari Elmurodxon Madaminov, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi rahbari v.v.b Diyorbek Nishonov, viloyat Targ'ibotchilar guruhi rahbari Shavkatjon To'ychiyev, faxriy harbiylar hamda o'quvchilar ishtirok etdi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar bu kitobning bugungi kundagi ahamiyati, yurtimiz tarixi haqida ishtirokchilarga ma'lumot berib o'tishdi.

Yakunda “Men ham harbiy bo‘laman” kitobi maktablar kutubxonalari uchun topshirildi. Albatta bu kelgusida o'quvchilar uchun eng kerakli qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

2024-09-24 20:41:16